

MEHR-OQIBAT NIMA?



Maqollarning davomini topib, mazmunini tushuntiring.

Mehrli odam –

**mehrsizdan hamma
qochar.**

**Kimning qalbida
mehr bor,**

sevimli.

**Mehr bersang
qadring oshar,**

unda sehr bor.



1. Bu rasmlarda nimalar tasvirlangan?
2. Yaxshilik qanday namoyon bo'ladi?
3. Birovga yaxshilik qilganingizda o'zingizni qanday his qilasiz?
4. Sizga yaxshilik qilishganda-chi?

Kecha matematikadan
qiyin masalani yechishda
Odinaga yordam berdim.



Bu zo'r!



Dars tayyorlashingga yordam
berishimni xohlaysanmi?



Rahmat, Akmal, sen juda mehribonsan.



Yaxshilik – odamlarga yordam berish, ko'nglini ko'tarish, xursand qilishdir. Yaxshilik, mehr-muruvvat – insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri. Yaxshilik insonni baxtli qiladi.



Sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

Ko'chada, maktabda, do'konda, transportda odamlarga qanday yaxshilik qilish mumkin?





Yaxshi inson bo'lish – dunyodagi hamma narsaga qayg'urish, degani. Yaxshilik boshqalarga, jonivorlarga, tabiatga nisbatan munosabatlarda namoyon bo'ladi. Insonlarni yaxshi ko'radigan, og'ir paytda yordam qo'lini cho'zadiganlar eng yaxshi odamlardir.



Nima yaxshi-yu, nima yomon?

**Birovning xursandchiligiga
sherik bo'lish**

Ezgu ishlarni qilish

**Yarim kechagacha
multfilm tomosha qilish**

Yaqinlarning tabassumi

Kechira olish

**Birovning jig'iga
tegish**

**To'g'ri javobni
ko'chirib olish**

Do'stiga yordam berish

**Qiynalgan odamga
yordam berish**

**Atrofdagilarga qo'rslik,
loqaydlik**



Siz xayrli ishlar agentisiz. Vazifangiz – odamlarga yaxshilik qilish. Lekin buni bildirmasligingiz kerak. Yaxshi ishlaringizni yon daftarchangizga yozib yuring, lekin hech kimga ko'rsatmang.



O'zbekistonda qonunlar hayvonlarni himoya qiladi. Ularni masxara va xafa qilmaslik, ko'chaga haydamaslik kerak. Buning ortidan jiddiy jazo – katta miqdordagi jarima belgilanadi.

Mushuklar uchun shahar



Ikki do'st Bekzod va Sasha Toshkentdagi bir mahallada istiqomat qilishardi. Bir kuni Sasha onasidan ayrilgan mushukchani ko'rib qoldi. Mushukcha xuddi yig'layotganday qarab turar, yolg'iz va g'amgin edi. Sasha har doim qarovsiz hayvonlarni topib, ularga yordam berardi. U bu gal ham beparvo o'tib ketmadi, mushukchani qo'lga olib, uyiga olib ketdi. Uyga yetib kelgach, eshik oldida to'xtadi va o'yladi.

Bu uyga olib kelingan uchinchi mushukcha bo'ladi. Mushukchani ko'rib, buvisining jahli chiqishi mumkin. Axir kichkina uyga hamma mushukni sig'dirib bo'larmidi? "To'g'ri", dedi Sasha xo'rsinib. So'ng do'sti Bekzodga telefon qildi. Bekzod darrov go'shakni ko'tardi. "Bek, men mushukcha topib oldim", dedi Sasha. "Tasodifni qara, – dedi Bekzod, – men ham mushukcha topib oldim. Endi nima qilishni bilmay turibman. Onam unga bir muddat boshpana berishga ruxsat berdilar va keyin uni birovga berib yuborishimni tayinladilar. Eh... agar mushuklarning o'z uyi bo'lganda edi, ularga boshpana izlash shart bo'lmasdi".



Shunda Bekzod birdan xursand bo'lib ketdi va dedi:

– Sasha, ko'chada qolgan uysiz mushuklar uchun uy quraylik! Yaxshisi, ular uchun butun boshli shahar quramiz.

– Ajoyib g'oya! – dedi Sasha bu gapdan quvonib. Bu g'oya yigitlarni shunchalik ruhlantirdiki, ular darhol ishga kirishishdi.

Shahar qurish – bu jiddiy, katta loyiha! Demak, ishni ruxsatnoma olishdan boshlash kerak. Shuning uchun, avvalo, mahalla fuqarolar yig'iniga borib, mahalla raisiga niyatlarini bildirishdi. Ular o'z g'oyalarini o'qituvchilariga ham aytib berishdi.

Ikki do'st to'siq bilan o'rab qo'yilgan, daraxtlar o'sadigan kichik maydonni tanladilar. Bu joyni chiqindilardan tozalash kerak edi. Bolalar darhol ishga kirishdilar. Ertasi kuni ularga Sveta va Sayyora qo'shildi. Keyin Sergey va Temur. Bolalar tuproq va chiqindilarni xaltalarda tashishdi, bu tezroq va qulayroq edi. Maydon tozalangach, qizlar chiroyli gulzor qilish uchun ko'chat va gul urug'larini olib kelishdi. O'g'il bolalar esa turli quti va taxtalardan uy qurishni boshladilar. Mahallaning mushuklari o'zlariga atalgan shaharchaning qanday qurilayotganini katta qiziqish bilan kuzatdilar. Jamoadagi bolalar soni o'n yetti nafarga yetdi.



Mushuklar shaharchasi qurilgach, uni "Mushukkent" deb atashdi va ochilish marosimiga ko'ngillilarni taklif qilishdi. Ochilishga hatto televideniye dan ham kelishdi. Odamlar bu shaharcha haqida bilib olishdi va bolalarni maqtashdi.

Bu hikoyaning yaxshi tomoni shundaki, u to'qima voqea emas. Bu rostdan ham bo'lgan voqea. Mushukkent loyihasi 2019-yilda paydo bo'lgan. O'shandan beri Toshkentda ko'cha mushuklari uchun kichik uylar qurilmoqda, aholi mushuklarni boqyapti va parvarishlayapti.



1. Ushbu hikoya qahramonlari haqida nima deya olasiz?
2. Nega ular mushuklar uchun shahar qurishga qaror qilishdi?



Qanday qilib g'amxo'rlik va mehribonlik ko'rsatishingiz mumkinligini kichik guruhlarda muhokama qiling. O'z fikrlaringizni sinfdoshlar bilan o'rtoqlashing.



"Do'stlar" multfilmini tomosha qiling. Undan nimalarni o'rgandingiz? So'zlab berishga tayyorlaning.